

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

О‘QITUVCHILAR MALAKASINI OSHIRISH DASTURLARIGA TANQIDIY FIKRLASHNI INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK MODELLARI

Abdullayev Javohir

Jizzax davlat pedagogika universiteti

III-bosqich Tayanch Doktoranti

Аннотация : Ushbu maqolada o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlariga tanqidiy fikrlashni integratsiyalashning pedagogik modellari tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini oshirishga, innovatsion ta’lim metodlarini qo‘llashga va o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada mavjud ta’lim dasturlari tahlil qilinib, tanqidiy fikrlashni integratsiyalash uchun samarali pedagogik yondashuvlar va modellar taklif etiladi. Tadqiqot natijalari asosida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida tanqidiy fikrlashning ahamiyati yoritiladi va amaliy tavsiyalar beriladi.

Калит so‘zlar: tanqidiy fikrlash, o‘qituvchilar malakasini oshirish, pedagogik model, integratsiya, innovatsion ta’lim metodlari, ta’lim samaradorligi, pedagogik kompetensiya.

Аннотация: В статье анализируются педагогические модели интеграции критического мышления в программы подготовки учителей. Развитие критического мышления способствует повышению педагогической компетентности учителей, использованию инновационных методов обучения и обеспечению эффективности процесса обучения. В статье также анализируются существующие образовательные программы и предлагаются эффективные педагогические подходы и модели интеграции критического мышления. На основании результатов исследования подчеркивается важность критического мышления в профессиональном развитии педагогов и даются практические рекомендации.

Ключевые слова: критическое мышление, подготовка учителей, педагогическая модель, интеграция, инновационные методы обучения, эффективность образования, педагогическая компетентность.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

Abstract: This article analyzes pedagogical models for integrating critical thinking into teacher training programs. Developing critical thinking helps to increase teachers' pedagogical competence, apply innovative teaching methods, and ensure the effectiveness of the educational process. The article also analyzes existing educational programs and proposes effective pedagogical approaches and models for integrating critical thinking. Based on the results of the study, the importance of critical thinking in the professional development of teachers is highlighted and practical recommendations are given.

Keywords: Critical thinking, teacher training, pedagogical model, integration, innovative teaching methods, educational effectiveness, pedagogical competence.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimida o'qituvchilarning malakasini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Zamonaviy o'quv jarayonida tanqidiy fikrlashning ahamiyati tobora ortib bormoqda, bu ko'nikmalarni rivojlantirish o'quv jarayonini sifatli amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etmasdan qolmaydi. Tanqidiy fikrlash o'qituvchi malakasini oshirish dasturlariga integratsiyalashning pedagogik modellari esa ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshirishga va ta'minlashga xizmat qiladi¹.

Shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlari o'qituvchilarning pedagogik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga va takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu dasturlar ta'lim jarayonini yanada samarali boshqarish hamda yangi metodlarni o'zlashtirish, shuningdek, o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy o'sishiga hissa qo'shadi. Bundan tashqari, o'qituvchilarni malakasini oshirishda tanqidiy fikrlashni integratsiyalash hamda yangi pedagogik yondashuvlarni o'rgatish muhim sanaladi.

O'qituvchilarni malakasini oshirishda pedagogik bilimlarni kengaytirish, ijtimoiy va emosional ko'nikmalarni rivojlantirish va texnologik bilimlarni oshirish asosiy yo'nalishlar hisoblanadi.

O'qituvchilarni yangi pedagogik bilimlar va metodlar bilan tanishtirish va bu orqali o'qituvchilar yangi ma'lumotlarni izlashadi va o'quvchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishlari uchun pedagogik bilimlarini

¹ Karimov, X. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning metodologiyasi. *Iqtisodiyot va jamiyat* jurnali, №11(126), 2024

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

kengaytiradilar. Bundan tashqari o'qituvchilarning o'zaro munosabatlar va empatiya ko'nikmalarini oshirish, bu o'quvchilarga o'qitishning yuqori sifatini ta'minlasha **ijtimoiy va emosional ko'nikmalarni rivojlantirish** alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yangi ta'lim texnologiyalarini o'qituvchilarga o'rgatish, shu jumladan masofaviy o'qitish, virtual sinflar va multimedia vositalari yordamida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish **texnologik bilimlarni oshirish muhim hisoblanadi.**

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan malaka oshirish dasturlari o'qituvchilarni murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil fikr yuritishga o'rgatadi. Bu o'z navbatida dasturlar va ko'nikmalar o'qituvchilarga yanada qo'l keladi.

O'qituvchilar **Muammoli vaziyatlar tahlili orqali** real hayotdan olingan vaziyatlar asosida tanqidiy fikr yuritishni o'rganadilar. O'qituvchilar o'quvchilarning fikrlarini tinglash, **hurmat qilish**, bahs-munozara tashkil etish va o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rag'batlantirishni o'rganadilar.

O'qituvchilar malaka oshirishda dasturlar va amaliy mashg'ulotlar orqali yangi metodlar va texnikalarni o'rganish dolzarb sanaladi. Shu bilan birga, o'qituvchilarni pedagogik jarayonida foydalanish uchun yaratgan innovatsion metodlarni o'rganish va o'quvchilarga taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishda dastur va mashg'ulotlar zarur hisoblanadi. Binobarin,

Zamonaviy jamiyatda o'qituvchilarning nafaqat bilim beruvchilar, balki mustaqil tafakkurga yo'naltiruvchi murabbiylar sifatida shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy fikrlash insonning mavjud axborotni chuqur tahlil qilishi, xolisona baholashi va asoslangan xulosalar chiqarishi jarayoni bo'lib, ushbu qobiliyat o'qituvchilarda shakllanganda ta'lim tizimi yanada sifatli va samarali bo'ladi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik modellar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

AQShda tanqidiy tafakkurni o'stirish bo'yicha maxsus kurslar joriy etilgan bo'lib, ular orqali o'qituvchilarga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, bahs-munozaralar orqali fikr yuritish va xulosalar chiqarish ko'nikmalari shakllantiriladi².

² G. Brookfield. **Developing Critical Thinkers: Challenging Adults to Explore Alternative Ways of Thinking and Acting.** San Francisco: Jossey-Bass, 1987

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

Finlyandiyada esa muammoli ta'lim metodlari orqali o'qituvchilar real hayotiy masalalar yechimini izlashga o'rgatiladi, bu esa ularning o'quv jarayoniga innovatsion yondashuvni qo'llashlariga imkon yaratadi³.

Shuningdek, osiyo mamlakatlari Janubiy Koreya va Yaponiyada esa elektron platformalar va masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yo'lga qo'yilgan bo'lim, o'qituvchilarning tanqidiy tafakkurini shakllantirish uchun turli pedagogik modellar samarali qo'llaniladi⁴.

Muammoli ta'lim modeli o'qituvchilarga murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va muammolarga ijodiy yechim topish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, interfaol o'qitish usullari esa o'qituvchilarning jamoaviy fikrlashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki guruh ishlari, bahs-munozaralar orqali ular o'z qarashlarini himoya qilish, boshqalar nuqtai nazarini tushunish va asosli xulosalar chiqarish imkoniga ega bo'ladilar.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish modeli o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish orqali tanqidiy fikrlashni mustahkamlash imkonini beradi. Masalan, onlayn treninglar, vebinarlar va virtual laboratoriyalar orqali o'qituvchilar o'z tajribalarini kengaytirishlari, yangi yondashuvlarni o'zlashtirishlari mumkin⁵.

Mentorlik modeli esa tajribali pedagoglarning yosh o'qituvchilarga ustozlik qilishini nazarda tutadi, bu esa o'qituvchilarning tanqidiy tafakkurini amaliyot orqali shakllantirishga xizmat qiladi⁶.

O'qituvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularning malaka oshirish dasturlariga integratsiyalash jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim. Birinchi bosqichda o'qituvchilarning mavjud tanqidiy tafakkur darajasi tahlil qilinib, kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda esa interfaol treninglar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'qituvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi. Uchinchi bosqichda ta'lim jarayonining samaradorligi baholanib, refleksiya jarayoni yo'lga qo'yiladi. To'rtinchi bosqichda esa zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish orqali o'qituvchilarning tanqidiy tafakkurini yanada rivojlantirishga e'tibor qaratiladi⁷.

³ Facione, P. A. **Critical Thinking: What It Is and Why It Counts**. Insight Assessment, 2013

⁴ Zagashv I.O., Zair-Bek S.I. **Tanqidiy fikrlash: rivojlantirish metodlari**. Sankt-Peterburg: Alyans Delta, 2003

⁵ Pedagogika referatlari. **Tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi faol metodlar**. Arxiv.uz.

⁶ Jizzax davlat pedagogika universiteti. **Tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi**. JDPU.uz

⁷ Mirarab.uz. **Zamonaviy ta'limda pedagogik mahoratni oshirish usullari**.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

Tanqidiy fikrlash pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylanganda, o'qituvchilar o'z darslarini yanada mazmunli va samarali tashkil etadilar, natijada o'quvchilarning mustaqil tafakkur qilish qobiliyatlari mustahkamlanadi. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish o'qituvchilarning kasbiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning ta'lim jarayonida yangiliklarga ochiq bo'lishini va o'z pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishini ta'minlaydi. Shunday qilib, o'qituvchilarning malakasini oshirish dasturlariga tanqidiy fikrlashni integratsiyalash orqali zamonaviy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishga erishish mumkin⁸.

Xulosa

O'qituvchilar malakasini oshirish dasturlariga tanqidiy fikrlashni integratsiyalash ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashni pedagogik modellar orqali ta'lim dasturlariga kiritish o'qituvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi va innovatsion ta'lim usullaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ushbu maqolada o'rganilgan pedagogik modellar tanqidiy fikrlashni samarali integratsiya qilishga xizmat qiladi hamda o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, interfaol metodlardan foydalanishi va ta'lim sifatini oshirishiga ko'maklashadi. Shuningdek, tadqiqot asosida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarining takomillashtirilishiga hamda ularning zamonaviy ta'lim talablariga moslashuvchan bo'lishiga xizmat qiladi. Shu boisdan, ta'lim muassasalari va malaka oshirish markazlari tanqidiy fikrlashni o'qitish jarayoniga joriy etishda innovatsion yondashuvlarni qo'llashi zarur.

⁸ Johnson, D. W., & Johnson, R. T. *Cooperative Learning and Conflict Resolution*. University of Minnesota Press, 2009 y

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 03, Март

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, X. **Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning metodologiyasi.** *Iqtisodiyot va jamiyat* jurnali, №11(126), 2024
2. Mirarab.uz. **Zamonaviy ta'limda pedagogik mahoratni oshirish usullari.**
3. Pedagogika referatlari. **Tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi faol metodlar.** Arxiv.uz.
4. Jizzax davlat pedagogika universiteti. **Tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi.** JDPU.uz
5. Zagashev I.O., Zair-Bek S.I. **Tanqidiy fikrlash: rivojlantirish metodlari.** Sankt-Peterburg: Alyans Delta, 2003
6. Facione, P. A. **Critical Thinking: What It Is and Why It Counts.** Insight Assessment, 2013
7. G. Brookfield. **Developing Critical Thinkers: Challenging Adults to Explore Alternative Ways of Thinking and Acting.** San Francisco: Jossey-Bass, 1987
8. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. **Cooperative Learning and Conflict Resolution.** *University of Minnesota Press*, 2009 y
9. Beyer, B. K. (1995). *Critical Thinking.* Bloomington, IN: Phi Delta Kappa Educational Foundation.
10. Paul, R., & Elder, L. (2006). *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life.* Upper Saddle River, NJ: Pearson Prentice Hall.
11. Lipman, M. (2003). *Thinking in Education.* Cambridge: Cambridge University Press.
12. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* Cambridge, MA: Harvard University Press.